



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ILMIY MAKTABI

DEMOGRAPHY

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

LABOUR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

scientific electronic journal

2023 yil, 3-son

Volume 4, Issue 3, 2023



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI



LABORECONOMICS.UZ

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

№ 3-2023

ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog‘lanish uchun telefonlar:

+998998818698

TOSHKENT-2023

Tahririyat Kengashi raisi:

(Chairman of the Editorial Board)

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:

(Members of the Editorial Board)

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d., prof.
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d, prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.
Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.f.d., (PhD), dots.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:

(Community Council members)

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)
Keynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Veb-administrator (Web admin): Musayev Xurshid Sharifjonovich

MUNDARIJA (CONTENTS)

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH		
S.B.G'oyipnazarov	<i>Mahalliy davlat hokimiyati organlarida inson resurslarini boshqarishning xalqaro tajribasi</i>	5-21
O.T.Astanakulov	<i>Davlat xizmatida xodimlar faoliyati samadorligini baholash</i>	22-35
M.A.Qayumova	<i>Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar motivatsiyasining muammolari va uning tahlili</i>	36-45
MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI		
Z.D.Adilova	<i>Turistik xizmatlar bozorida bandlikni tartibga solish va boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy usullari ...</i>	46-56
X.F.To'xtayeva		
M.M.Mirzakarimova	<i>O'zbekistonda mehnat bozori muammolari</i>	57-68
Sh.O.Olimjonova		
S.A.Otaqo'ziyeva	<i>O'zbekiston mehnat bozorida raqamli texnologiyalar mutaxassislariga talab va taklifni baholovchi mezonlar tizimi</i>	69-80
F.A.Doniyorova	<i>Aholi bandligini ta'minlashning yo'nalishlari (O'zbekiston Respublikasi misolida)</i>	81-88
DEMOGRAFIYA		
R.I.Nurimbetov	<i>O'zbekistonning ayrim demografik masalalari va aholi bandligini manfaatdorlik indeksi asosida baholash</i>	89-101
A.M.Ismailov		
D.A.Abduxoliqova	<i>O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdagi demografik siyosati</i>	102-113
O.A.Nasretdinova		
INSON KAPITALI		
S.E.Xolmuratov	<i>Пути совершенствования образовательной системы Республики Узбекистан путем применения «финского чуда»</i>	114-126
J.S.Xolmuratov		
N.B.Ulug'muradova	<i>Raqamli iqtisodiyotda inson kapitali rivojlanishini boshqarishni tashkiliy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash.....</i>	127-135
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH		
X.Sh.Kaxramonov	<i>Исследование факторов, воздействующих на эффективное управление жилищным фондом города</i>	136-146
D.A.Ishanxo'jayeva	<i>Модель государственно-частного партнерства в сфере туризма</i>	147-163
MUNOSIB MEHNAT		
F.O'Masharipov	<i>Professional ta'lim muassasalari bitiruvchilari bandligini raqamli texnologiyalar asosida monitoring qilish istiqbollari.....</i>	164-175



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

<https://laboreconomics.uz/>



AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING YO'NALISHLARI (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)

Doniyorova Fotimabonu Alisher qizi
TDIU, “Inson resurslarini boshqarish”
kafedrasi dotsent v.b.

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a25

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholi bandligini ta'minlashning yo'nalishlari, ishsizlikning omillar batafsil yoritib berilgan. O'zbekiston Respublikasida aholining bandligi va ishsizlik darajasi, ularning o'zgarish dinamikasi hamda aholi bandligi sohalar bo'yicha tahlil qilingan. Shuningdek, aholining bandligini ta'minlash va ishsizlik darajasini kamaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: aholi bandligi, mehnat resurslari, ishsizlik, ish joylari, mehnat migranti, o'z-o'zini band qilish.

НАПРАВЛЕНИЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТЬЮ НАСЕЛЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН)

Дониерова Фатимабону Алишер кизи
ТГЭУ, Кафедра «Управление человеческими ресурсами»
в.и.о. доцент

Аннотация. В данной статье подробно раскрыты направления обеспечения занятости населения, факторы безработицы. Проанализированы уровень занятости и безработицы населения в Республике Узбекистан, динамика их изменения, занятость населения по отраслям. Также были разработаны предложения по обеспечению занятости населения и снижению уровня безработицы.

Ключевые слова: занятость населения, трудовые ресурсы, безработица, рабочие места, трудовой мигрант, самозанятость.

DIRECTIONS OF PROVIDING EMPLOYMENT OF THE POPULATION (IN THE EXAMPLE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN)

Doniyorova Fatimabonu Alisher kizi
TSUE, "Human resources management" department
acting associate professor

Abstract. In this article, the directions of ensuring the employment of the population, the factors of unemployment are explained in detail. The level of employment and unemployment of the population in the Republic of Uzbekistan, the dynamics of their change, and the employment of the population were analyzed by sector. Proposals were also developed to ensure the employment of the population and reduce the level of unemployment.

Keywords: population employment, labor resources, unemployment, jobs, labor migrant, self-employment.

Kirish

Bugungi kunda aholi bandligini ta'minlash borasida turli davlatlarda islohotlar va global loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, xalqaro mehnat tashkiloti aholi bandligining barqarorligini ta'minlash uchun butunjahon davlatlarining texnik, tashkiliy va institutsional imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Global pandemiya chekinayotgan davlatlar qatorida O'zbekistonda ham 2020-yilda pandemiya sababli yuzaga kelgan ishsizlik ko'rsatkichi pasayib, mavjud ish o'rinlari tiklanmoqda. Ammo, aholi bandligi pandemiyadan oldingi davrdagi holatiga qaytgani yo'q. Buning asosiy sababi tashqi migratsiya bilan bog'liq.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda mamlakatimizda boshqa davlatlarga borib mehnat qilayotgan mehnat migrantlari soni 2,6 mln. nafardan ortiq bo'lib, mazkur ko'rsatkich jami aholi sonining 7,5 foizini va jami mehnat resurslarining esa 13,6 foizini tashkil etadi. Pandemiya sharoitida ko'plab ish joylarining yopilishi va yashash sharoitining qiyinlashganligi bois aksariyat mehnat migrantlari mamlakatimizga qaytib keldilar. Bu esa ishsizlik darajasining o'sishi va aholi daromadlarining pasayishiga olib keldi.

Shu bois, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan faol tadbirkorlikni rag'batlantirish, investitsion iqlim va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash orqali yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi “Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3856-son qarori [1] qabul qilingan. Shuningdek, respublikada har yili aholi bandligini ta'minlash bo'yicha tasdiqlanadigan dasturlarni amalga oshirish, bo'sh va kvotalanadigan ish o'rinlariga ishga joylashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, o'zini o'zi band qilishning samarali shakllarini rivojlantirish borasida jiddiy chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Ammo, hududlardagi mehnat bozorida hali-hamon yuqori darajada keskinlik saqlanib qolmoqda, doimiy ish o'rinlarini tashkil etish, yoshlar, xotin-qizlar, kam ta'minlangan oilalar a'zolari bandligini, ayniqsa, qishloq joylarda ta'minlash, shuningdek tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish masalalari hal etilmayapti. Bu esa mavzuning nechog'lik dolzarb ekanligini hamda bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Aholi bandligini ta'minlash har doim ham dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, global pandemiya sharoitida bandlik masalasi global muammolardan biri ekanligini yana bir bor ko'rsatdi va bu borada yanada ko'proq ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etmoqda. Jumladan, xorijiy olimlardan, aholini ish bilan bandligi ta'minlashda mavjud muammolar yechimlari bo'yicha B.D.Breyev[2], norasmiy bandlik va uning davlat

moliyasiga ta’siri bo’yicha V.N.Salin va V.V.Narbutlar[3], bandlik va ishsizlikning statistik tahlili bo’yicha Ye.A.Dolgix[4], o’z-o’zini ish bilan ta’minlash va uzoq mehnat natijasida yurak-qon tomir kasalliklari xavfi bo’yicha C.Krittanawong, A.Kumar, Z.Wang, U.Baber va D.L.Bhatt[5], demografik o’zgarishlarining aholini ish bilan ta’minlashga ta’siri bo’yicha P.Ge W.Sun va Z.Zhao[6] hamda COVID-19 pandemiyasi davrida o’z-o’zini ish bilan ta’minlashning davomiyligi va raqobatdoshlik tahlillari bo’yicha J.Grashuis[7]lar ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Mahalliy olimlardan D.A.Nasimov[8] raqamli iqtisodiyot sharoitida bandlikning zamonaviy shakllarini joriy etish metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirishni, M.K.Abdullayev va D.B.Begalovalar[9] mamlakatimizda bandlik ko’rsatkichlari tahlillarini, S.A.Bozorova[10] aholining ish bilan bandligini oshirishda xizmat ko’rsatish va servis sohasining holatini, A.B.Irmatova[11] ayollarni intellektual mehnat bilan band bo’lish muammolarini, A.Tashpulatov[12] va Sh.R.Xolmuminov, B.X.Umurzakov, T.A.Maxmudovlar[13] qishloq aholisining ish bilan bandligi va ularining norasmiy ish bilan bandligini kamaytirishning strategik ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tadqiq etib kelmoqda.

Mazkur tadqiqotlarning natijalari, ulardagi ilmiy asoslangan takliflar, amaliy tavsiyalar va xulosalarga qo’shilgan holda aytish joizki, aholini ish bilan bandligi ta’minlash borasidagi mavjud muammolarni yechish va bu bo’yicha statistik tahlillarni amalga oshirgan holda masalani hal etishning tashkiliy, iqtisodiy va institutsional jihatlarini ilmiy jihatdan yanada tadqiq etish, shuningdek innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda ekspert baholash, taqqoslash, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv usullardan, statistik jadvallar va grafiklar hamda diagrammalardan, shuningdek Xalqaro mehnat tashkiloti, O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi kabilarning rasmiy statistik ma’lumotlari hamda tadqiqot mavzusiga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Davlatlar iqtisodiyotining integrasiyalashuvi hamda davlatlararo ijtimoiy-iqtisodiy, strategik aloqalarning rivojlanishi, shuningdek tug’ilish kamligi sababli aholi o’sishi turg’un yoki past darajada bo’lgan davlatlar (Yevropa davlatlari, Rossiya, Janubiy Koreya kabilar) hisobiga Xalqaro mehnat migratsiyasi tobora kengayib bormoqda.

Bu jarayon har qaysi davlatga foyda keltiradi. Ya’ni, mehnat muhojirlari boradigan mamlakatlarning o’sishi va rivojlanishiga o’z hissalarini qo’shsalar, pul o’tkazmalari va ular egallagan tajribalaridan o’z mamlakatlariga katta foyda keltirishadi.

Ammo, migratsiya jarayonini boshqarish, mehnat muhojirlarini himoya qilish, migratsiya va rivojlanish aloqalari hamda xalqaro hamkorlik masalalari tartibga solish murakkab masalalardan biri hisoblanadi.

Aholining o'sish sur'ati yuqori bo'lgan hamda aksariyat rivojlanayotgan va rivojlanishi past bo'lgan davlatlarda aholini ish bilan ta'minlashda yetarli darajada muammolar mavjud. Masalan, ish o'rinlarining kamligi, oylik maoshlarning pastligi, mehnat resurslarining kasbiy malakasi va bilim saviyasining yetishmasligi shular jumlasidandir.

Iqtisodiyotda ishsizlikning beshta asosiy sababi mavjud:

➤ yangi texnologiyalarni joriy qilish bilan bog'liq bo'lgan va iqtisodiyotdagi boshqa tarkibiy o'zgarishlar;

➤ mehnat resurslariga bo'lgan talabning pasayishiga olib keladigan iqtisodiy tanazzul;

➤ davlat siyosati, eng kam ish haqining oshishi va shu sababli ishchi kuchiga talabning pasayishi;

➤ iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida mavsumiy tebranishlar;

➤ demografik o'zgarishlar, ya'ni mehnatga layoqatli aholining o'sishi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ham aholini ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tadbirkorlik va kichik biznesni, oilaviy tadbirkorlikni va o'z-o'zini band qilishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularning rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish asosida aholi bandligini oshirish shular jumlasidandir.

2023-yil yanvar holatiga ko'ra, mamlakatimizda aholi soni 35,7 mln. nafarni tashkil etib, shundan 17,8 mln. nafari shaharlarda va 17,7 mln. nafari qishloq joylarda istiqomat qiladi.

Aholi zichligi esa respublika bo'yicha 1 kv.km ga 77 ming kishi to'g'ri keladi. Ammo, hududlar bo'yicha aholi joylashuvi keskin farq qiladi, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida 1 kv.km ga 11,5 ming kishi to'g'ri kelsa, Andijonda 741,4 ming, Buxoroda 48,4 ming, Jizzaxda 66,5 ming, Qashqadaryoda 116,7 ming, Navoiyda 9,1 ming, Namanganda 385,4 ming, Samarqandda 235,4 ming, Surxondaryoda 133,4 ming, Sirdaryoda 201,2 ming, Toshkentda 196,3 ming, Farg'onada 565,1 ming, Xorazmda 312,9 ming va Toshkent shahrida esa 7874,1 ming kishini tashkil etadi. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi turli darajada bo'lgan hududlar bo'yicha ichki mehnat migratsiyasining kuchliligini bildiradi.

Tahlillarga ko'ra, respublikada mehnat resurslari soni 19,1 mln. kishini tashkil etib, bu doimiy aholining 55,9 foizini tashkish etadi. Jami mehnat resurslarining 19,01 mln. nafarini yoki 99,5 foizini mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi tashkil etsa, uning 0,09 mln. nafarini yoki 0,5 foizini mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi ishlovchilar tashkil etadi (1-jadval).


**O‘zbekiston Respublikasida mehnat resurslari tarkibi dinamikasi
(ming kishi)**

Mehnat resurslari tarkibi	2004	2008	2012	2016	2020	2021	2022
Mehnat resurslari	14048,8	15685,7	17564,3	18488,9	19142,3	20154,5	20845,4
doimiy aholiga nisbatan, foizda	54,3	57,5	59,0	58,1	55,9	54,8	55,5
shu jumladan:							
Mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi	13880,4	15474,6	17451,5	18371,7	19052,0	1972,1	2015,2
doimiy aholiga nisbatan, foizda	53,7	56,7	58,6	57,7	55,7	56,8	57
mehnat resurslariga nisbatan, foizda	98,8	98,7	99,4	99,4	99,5	99,2	98,4
Mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi ishlovchilar	168,4	211,1	112,8	117,2	95,1	98,4	97,6
doimiy aholiga nisbatan, foizda	0,6	0,8	0,4	0,4	0,3	0,4	0,4
mehnat resurslariga nisbatan, foizda	1,2	1,3	0,6	0,6	0,5	0,5	0,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.

Jami mehnat resurslarining 77,3 foizi yoki 14,8 mln. nafari iqtisodiy faol aholi hisoblanadi. Shuningdek, 13,2 mln. kishi yoki mehnat resurslarining 69,2 foizi iqtisodiyotda band aholidir.

Tahlillarga ko‘ra, 2022-yil bo‘yicha ish bilan band aholining 3,8 mln. nafari yoki 27,2 foizi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 1,8 mln. nafari yoki 13,5 foizi sanoat, 1,3 mln. nafari yoki 9,6 foizi qurilish, 1,4 mln. nafari yoki 10,3 foizi savdo, 0,6 mln. nafari yoki 4,7 foizi tashish va saqlash, 1,1 mln. nafari yoki 8,8 foizi ta‘lim, 0,7 mln. nafari yoki 4,9 foizi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 2,7 mln. nafari yoki 21,3 foizi boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri keladi (1-rasm).




1-rasm. Ish bilan band aholining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi (ming kishi).

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2022-yilda ish bilan bandlik darajasi 2010-yilga nisbatan 113,9 foizga, 2015-yilga nisbatan 101,4 foizga o'sgan bo'lsa, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mos ravishda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 114,2 va 98,8 foizga, sanoat 111,5 va 101,2 foizga, qurilish 122,6 va 103,7 foizga, savdo 110,4 va 96,5 foizga, tashish va saqlash 122,2 va 101,4 foizga, ta'lim 105,3 va 104,9 foizga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar 109,4 va 108,4 foizga hamda boshqa faoliyat turlari bo'yicha 116,3 va 103,4 foizga o'sish kuzatilgan.

Shuningdek, ish bilan band aholining mulkchilik turlari bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, 2022-yilda davlat sektorida bandlar soni 2,5 mln. kishini va nodavlat sektorda bandlar esa 10,7 mln. kishini tashkil etgan. So'ngi yillarda aholining davlat sektorlarida band bo'lganlar soni ko'paymoqda. Xususan, davlat sektorida banklikning o'sish sur'ati 2012-yilda (2010-yilga nisbatan) 98,0 foiz, 2014-yilda (2012-yilga nisbatan) 98,4 foiz, 2016 yilda (2014-yilga nisbatan) 100,2 foiz, 2018-yilda (2016-yilga nisbatan) 104,1 foiz, 2020-yilda (2018-yilga nisbatan) 102,9 foizga o'sgan.

2022-yil yanvar holatiga ko'ra, mamlakatimizda mehnat idoralaridan ro'yxatdan o'tgan ishsizlar soni 38,3 ming kishini tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich 2010-yilga nisbatan qariyb 3,4 baravarga oshgan bo'lsa, uning o'sish sur'ati 2000 yilda 0,4 foiz, 2004-yilda 0,4 foiz, 2008-yilda 4,9 foiz, 2012-yilda 4,9 foiz, 2016-yilda 5,2 foiz va 2020-yilda 110,5 foizni tashkil etgan (3-rasm).



3-rasm. Bandlik va ishsizlik darajalarining o'zish sur'ati (foiz).

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Mamlakatimizda band aholi sonining mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soniga nisbatan bandlik darajasi 2000-2022-yillar davomida o'rtacha 68,7 foizni tashkil etib kelgan. Jumladan, 2000-yilda 69,4 foiz, 2004-yilda 67,7 foiz, 2008-yilda 67,6 foiz, 2012-yilda 66,6 foiz, 2016-yilda 68,7 foiz va 2022-yilda 66,1 foizni tashkil etgan.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatimizda aholini ish bilan bandligini ta'minlash va ishsizlik darajasini kamaytirish bo'yicha quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Aholini ish bilan bandligini oshirish borasidagi muammolarni quyidan yuqoriga qadar chuqur tahlil qilish va amaliy yechimlarini ishlab chiqish hamda amalda bajarilishini nazorat qilish lozim.

2. Odatda yashirin iqtisodiyot ishsizlikni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda byurokratik yo'l bilan emas, balki iqtisodiy imtiyozlarni qo'llash orqali tashkil etish kerak.

3. Aholining demografik o'zgarishlariga paralel ravishda yangi ish o'rinlarini oshirib borish va bu borada rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan foydalanishni yo'lga qo'yish lozim.

4. Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida yangi paydo bo'ladigan kasblarga nisbatan uning natijasida yuzaga keladigan ishsizlik darajasi yuqoriroq bo'ladi. Shunday ekan, davlat va nodavlat sektorlarda yuqori malaka talab etmaydigan ish o'rinlarini ko'paytirish, xususan o'z-o'zini band qilishni yanada rag'batlantirish kerak.

5. Bugungi kunda bo'sh ish o'rinlari to'g'risida ma'lumotlar bazasi nodavlat sektorlar orasida bir qator onlayn platforfalar asosida yo'lga qo'yilgan. Ammo, davlat sektorlari veb saytlarida bo'sh ish o'rinlari to'g'risida ma'lumotlar juda kam va aksariyat ishga qabul jarayonlari yopiq hamda tor miqyosda amalga oshiriladi. Bu esa nafaqat bandlikka, balki mazkur idoralardagi ish unumdorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, davlat va nodavlat sektorlardagi bo'sh ish o'rinlari to'g'risida to'liq ma'lumotlarning yagona onlayn platformasini yaratish lozim.

6. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun davlat va nodavlat agentliklar faoliyatini kengaytirish hamda ular ustidan nazoratni kuchaytirish kerak.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, avvalo aholini real va to'g'ri hadlovdan o'tkazish lozim. Bu aholining demografik o'zgarishi va ish bilan bandligini ta'minlashga doir tahlil va tadqiqotlar natijalarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, aholining ish bilan bandligini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish va yashash sharoitlarini yaxshilashga doir istiqbolli strategiyalarni real ishlab chiqish imkonini beradi. Umuman olganda yangi ish o'rinlarini yaratishda mehnatga haq to'lashning munosib tariflaridan foydalanish nafaqat mehnat unumdorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini oshirishga ham olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldagi "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3856-son qarori. www.lex.uz

2. Breyev B.D. Zanyatost naseleniya v Rossii: sovremennost i perspektivy // Ekonomicheskaya nauka sovremennoy Rossii. №4, 2001. 59-74 s.

3. Salin V.N., Narbut V.V. Neformalnaya zanyatost naseleniya Rossii: osenka masshtaba i vliyaniya na gosudarstvennyye finansy strany // Finansy: teoriya i praktika. Tom 21, № 6, 2017. – 60-69 s.
4. Dolgix Ye.A. Statisticheskiy analiz zanyatosti i bezrabortisy v Rossiyskoy Federasii. Avtoreferat, diss. kand. ekon. nauk, M.: GUU, 2010.
5. Krittanawong C., Kumar A., Wang Z., Baber U., Bhatt D.L. Self-employment and cardiovascular risk in the US general population // International Journal of Cardiology Hypertension. Vol. 6 (100035), 2020. – 1-4r.
6. Ge P., Sun W., Zhao Z. Employment structure in China from 1990 to 2015 // Journal of Economic Behavior & Organization. Vol. 185, May 2021. – 168-190 r.
7. Grashuis J. Self-employment duration during the COVID-19 pandemic: A competing risk analysis // Journal of Business Venturing Insights. Vol.15 (e00241), 2021. – 1-9 r.
8. Nasimov D.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bandlikning zamonaviy shakllarini joriy etish metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) diss.si avtoreferati, T.: SamDU – 2020.
9. Abdullayev M.K., Begalova D.B. O'zbekiston Respublikasida aholi bandligini ta'minlashdagi dolzarb masalalar // “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 2 (00052), 2021. – 114-120 b.
10. Bozorova S.A. Aholining ish bilan bandligini oshirishda xizmat ko'rsatish sohalarining o'rni // “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3 (00035), 2018. – 1-7 b.
11. Irmatova A.B. Intellectual mehnatni rivojlanishi ayollarni ish bilan bandligiga ta'siri // “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 1 (00045), 2020. – 93-100 b.
12. Tashpulatov A. Qishloq mehnat bozorini prognozlashtirish usullari // “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 5 (00049), 2020. – 70-76 b.
13. Xolmuminov Sh.R., Umurzakov B.X., Maxmudov T.A. Qishloq joylarda aholini norasmiy ish bilan bandligini kamaytirishning strategik ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati / «Qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning zamonaviy yo'nalishlari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining ilmiy maqolalar to'plami. – T.: «Innovasion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2020. – 26-41 b.



Tashkent state university of economics



+998 99 881 86 98



Tashkent, Uzbekistan



ilmiymaktab@gmail.com



www.laboreconomics.uz